



ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ALISHER
NAVOIY

**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MASALALARI”
ILMIY-NAZARIY ANJUMANI
MATERIALLARI**

2022-YIL 16-MART



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI

Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari

Toshkent – 2022

“Tilshunoslikning dolzarb masalalari” Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. Mas’ul muharrir: Sh. Sirojiddinov. – Toshkent, 2022. – 412 b.

Mas’ul muharrir:

Sh. Sirojiddinov

filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

Z. Abdirashidov – ilmiy va innovatsiya ishlari bo‘yicha prorektor

H.Dadaboyev – filologiya fanlari doktori, professor

B.Abdushukurov – filologiya fanlari doktori, professor

Z.Xolmanova – filologiya fanlari doktori, professor

M.Qurbonova – filologiya fanlari doktori, dotsent

D.Jumashev – katta o‘qituvchi

S.Bozorova – katta o‘qituvchi

D.Muhammadiyeva – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
(v.b.)

G.Komilova – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

K.Rixsiyeva – o‘qituvchi

S.Abduraxmonova – o‘qituvchi

Ushbu ilmiy maqolalar to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 7 -martdagi 101-F-son farmoyishi bilan tasdiqlangan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida tashkil qilingan “Tilshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallarini o‘z ichiga oladi.

Maqolalar o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyoti, turkologiya, shevashunoslik, lug‘atshunoslik, o‘zbek tilshunosligidagi zamonaviy yo‘nalishlar masalalariga bag‘ishlangan. Maqolalarda o‘zbek tilining tarixiy ildizlarini yoritish, mumtoz manbalardagi tilshunoslikka doir qarashlarni o‘rganish, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, psixolingvistika, neyrolingvistika, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, lingvopoetika, lingvofolkloristika, lingvodidaktika, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi kabi zamonaviy yo‘nalishlarda integrativ yondashuv asosida tadqiqotlar olib borish, til nazariyasi va amaliy tilshunoslik, tarjimashunoslik muammolarini tahlil qilish o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan. Mazkur to‘plam tilshunoslikka doir masalalarni o‘zbek tili tarixi va bugungi taraqqiyotini uyg‘unlikda hamda integratsiya asosida tadqiq qilishga yo‘naltiradi.

Mazkur to‘plam professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, tadqiqotchilar, magistrantlar hamda barcha qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2022-yil 31-martdagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan (8-sonli bayonnoma).

“Views of uzbek thinkers on the theory of language”. Materials of international scientific-theoretical conference. Responsible editor: Sh. Sirojiddinov. – Tashkent, 2022. – 412 p.

Responsible editor:

Sh. Sirojiddinov

Doctor of philological sciences, professor

Editorial Board:

Z. Abdirashidov – Vice Rector for Research and Innovation

H.Dadaboyev– Doctor of philological sciences, professor

B.Abdushukurov – Doctor of philological sciences, professor

Z.Xolmanova – Doctor of philological sciences, professor

M.Qurbonova – Doctor of philological sciences

D.Jumashev – head teacher

D.Baxranova – PhD philological sciences

S.Bozorova – head teacher

D.Muhammadiyeva – PhD philological sciences

G.Komilova – PhD philological sciences

K.Rixsiyeva – teacher

S.Abduraxmonova – teacher

*This collection of scientific articles includes materials of the scientific-theoretical conference "**Current issues of linguistics**", organized on the basis of the plan of scientific and scientific-technical activities approved by the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated March 7, 2022 No 101-F.*

The articles are devoted to the historical development of the Uzbek language, Turkology, dialectology, lexicography, modern trends in Uzbek linguistics. The articles cover the historical roots of the Uzbek language, study the views of linguistics in classical sources, conducting research based on an integrated approach in modern areas such as sociolinguistics, linguoculturology, psycholinguistics, neurolinguistics, cognitive linguistics, pragmalinguistics, linguopoetics, linguofolkloristics, linguodidactics, computer linguistics, corpus-based linguistics. In addition, it was noted that research, analysis of language theory and applied linguistics, translation studies play an important role in enhancing the prestige and status of the Uzbek language as the state language. This collection focuses on linguistic issues, the history of the Uzbek language and its current development in a harmonious and integrated way.

This collection is intended for professors, doctoral students, researchers, graduate students and anyone interested.

Discussed at the meeting of the Council of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi on march 31, 2022 and recommended for publication (Protocol №. 8).

**Vujudimizda, qonimizda ajdodlarimizdan
meros buyuk qudrat jo'sh urayotgan ekan, biz ezgu orzu va maqsadimiz
bo'lmish Yangi O'zbekistonni, albatta, bunyod etamiz!**

**"...tomirlarida buyuk bobolarimizning g'ayrat-shijoati jo'sh urib turgan
aziz farzandlarim, sizlar Yangi O'zbekistonni barpo etishda doimo oldingi safda
bo'lasizlar, deb ishonaman!**

**Eng katta boylik bu – aql-zakovat va ilm, eng katta meros bu – yaxshi
tarbiya, eng katta qashshoqlik bu – bilimsizlikdir!**

Suvda cho'kmaydi, o'tda yonmaydi. Biling: bu – bilim.

**Davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan,
Internet jahon axborot tarmog'ida munosib o'rin egallashini ta'minlash, o'zbek
tilining kompyuter dasturlarini yaratish muhimdir.**

Shavkat Mirziyoyev

pragmasemantik xususiyat kasb etishi mumkin. Bu holat bolalar tomonidan, ayniqsa, shaxs deyksisining ifodalanish jarayonida aniq ko'zga tashlanadi. O'zbek tilshunosligida ham keyingi yillarda deyksis hodisasini o'rganishga e'tibor kuchaydi. Bu muammo yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlarida deyktik birliklarning pragmatik xususiyatlari muayyan darajada tahlil etildi. Ammo, bugungi kunda o'zbek bolalar nutqiga xos deyktik birliklarning pragmatik xususiyatlari muammosi maxsus tekshirishni talab etadi. Ma'lumki, bolalar nutqida kuzatiladigan ayrim ishora birliklari o'ziga xosligi bilan kattalar nutqida qo'llanuvchi deyktik birliklardan ajralib turadi. Bu holat ular tomonidan, ayniqsa, shaxs deyksisining ifodalanishi jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bolalar nutqida shaxs deyksisini ifodalashga xizmat qiluvchi ayrim deyktik birliklar fonetik jihatdan jiddiy farqlanadi. Bolalar nutqidagi deyktik birliklarning yuzaga chiqishi katta yoshlilarning ta'siri ostida amalga oshadi, shuningdek, ulardagi psixofiziologik jarayonlarning mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Deyksis hodisasi uch tomonlama tasnif etiladi: zamon, makon va shaxsga oid deyktik birliklar. Har uchala deyktik ishoralarning yuzaga chiqishi ijtimoiy faoliyat bilan mutanosibdir. Shuning uchun ham deyktik ishoralarning ijtimoiy qatlamga ko'ra tahlil etilishi amaliy tilshunoslikda ko'pgina muammoli masalalar yechimiga sabab bo'ladi. Shuningdek, muloqot jarayoni faqatgina tinglovchi va so'zlovchi o'rtasidagi faoliyat emas, balki ushbu jarayon ishtirokchilarining nutqiy maqsadi, nutqiy vaziyati kabi holatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalalarni ham pragmatik, ham lingvistik jihatdan tadqiq etish biz tilshunoslarning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Belikov V.I., Krisin L.P. Sotsiolingvistika. – M.:RGGU, 2001.
2. Lutfullayeva D., Qurbonova M. Bolalar nutqiga xos deyktik birliklarning fonopragmatik tahlili. O'zbek tili va adabiyoti jurnali. –Toshkent, 2013. №6.
3. John L. Introduction to theoretical linguistics. Published online by Cambridge University Press: 28 November 2008.
4. Levinson S. Pragmatics. Cambridge university press: 1983.
5. Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихоллингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009.

O'ZBEK TILIDAGI ZAMON GRAMMATIK SHAKLLARINING FORMAL TASNIFI

**Xonnazarov E.,
ToshDO'TAU tayanch doktranti**

Annotatsiya. Jahon tilshunosligida zamonlar tasnifida vaqtning uch nuqtasi: nutq momenti (N), ishora vaqt (I), harakat-holat vaqti (H) hisobga olinadi. Maqolada o'zbek tilidagi zamoni ifodalovchi grammatik shakllar NIH munosabatidan kelib chiqqan holda tasniflangan.

Kalit soʻzlar: *zamon, zamonlar tasnifi, oʻtgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon, nutq momenti, ishora vaqt, harakat-holat vaqti.*

Oʻzbek tilshunosligida zamon kategoriyasi tadqiqiga oid ishlarda vaqtning ikki nuqtasi: nutq momenti (N) va harakat-holat sodir boʻlgan vaqt (H) haqida gap boradi. Vaqtning yana bir nuqtasi – ishora vaqt alohida ajratilmaydi. Ishora vaqt matnda qachon soʻrogʻiga javob boʻluvchi soʻzlar (payt ravishlari, payt otlari, sonlar), shuningdek, gapda bir nechta harakat-holat ifodalanganda ular oʻrtasidagi zamon bilan boʻgʻliq munosabatlar orqali reallashadi. Bu uch nuqtaning munosabatida “=” belgisi ikki tomonidagi nuqtalarning bir vaqtga toʻgʻri kelishni, “>” belgisi oʻng tomondagi nuqtaning chap tomondagi nuqtadan oldin yuz berganligini, “<” belgisi esa aksincha, oʻng tomondagi nuqtaning chap tomondagi nuqtadan keyin yuz berganligini ifodalaydi. “⊂” belgisi esa chap tomondagi nuqtaning oʻng tomondagi nuqta tarkibiga tegishli ekanligini anglatadi. Koʻp hollarda ishora vaqtning harakat-holat vaqti bilan bir paytga toʻgʻri kelishi manbalarimizda uning alohida ajratilmasligiga sabab boʻlgan.

NIH uchligi asosida zamon shakllarining tasnifini quyidagicha amalga oshirish mumkin:

I. Oʻtgan zamon shakllari:

I.1. $N>I=H$ strukturasi ifodalaydigan umumiy oʻtgan zamon shakllari: **-di, -b (-ib), edi.**


Bu shakllardan -di soʻzlovchi tomonidan bevosita kuzatilgan harakat-holatni ifodalaydi. M: *Ular ishni bajarishdi.* -b (-ib) esa bevosita kuzatilmagan, balki eshitilgan yoki keyin bilingan harakat-holatlarni ifoda etadi. -b (-ib) I shaxsda keyin xabardor boʻlganlik maʼnosini, II va III shaxsda eshitilganlik maʼnosini voqelantiradi. M: *Shu kuni kechgacha uxlabman. (keyin bilganlik). Ishlarni oʻz vaqtida bajaribsiz. Salim ularni koʻrgani boribdi. (eshitilganlik)* Edi toʻliqsiz feʼli esa feʼl boʻlmagan soʻzlarga oʻtgan zamon maʼnosini yuklaydi. M: *Otasi yaxshi inson edi.* Ushbu grammatik shakllar yordamida ifodalangan harakat-holat obyektiv zamon zamon oʻqida quyidagicha oʻrinlashadi (1-chizma):



1-chizma. Umumiy oʻtgan zamon

I.2. $N=I>H$ strukturasi ifodalaydigan natijali oʻtgan zamon shakli: **-gan (-kan, -qan)**


Bu shakl bevosita kuzatilgan va kuzatilmaganlikni anglatishi mumkin. Koʻpincha bevosita kuzatilganlikni ifodalaganda harakat-holat natijasi nutq momenti bilan bogʻlanadi (2-chizma), subyektni tavsiflash vazifasini bajaradi. M: *Charchaganman.* -gan shakli bevosita kuzatilmaganlikni ifodalaganda kontekstga bogʻliq holda $N>I=H$ munosabati mazmunini ham berishi mumkin.



2-chizma. Natijali oʻtgan zamon

I.3. $N>I>H$ strukturasi ifodalovchi uzoq oʻtgan zamon shakllari: **-gan edi (-kan edi, -qan edi), -b edi (-ib edi).**

Bu shakllar bevosita kuzatilganlik, subyektning tavsiflash ma'nolarini asosan boshqa bir vaqt nuqtasi bilan munosabatda ifodalaydi (3-chizma). M: *U kelganda men ketgan edim*. Ushbu shakllar bilan ifodalangan harakat va holatlar nutq momentidan -di, -ib, -gan shakllariga nisbatan uzoqroq masofada joylashadi. Biroq ayrim hollarda ishora vaqti bilan harakat vaqti teng kelishi ham mumkin. Bunda -gan edi (-kan edi, -qan edi), -b edi (-ib edi) shakllari -di, -ib, -gan qo'shimchalarining o'rnida qo'llangan bo'ladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida -b edi (-ib edi) shakli nisbatan nafaol bo'lib, uning vazifasini ham -gan edi shakli bajaryapti.



3-chizma. Uzoq o'tgan zamon

I.4. $N > I < H$ strukturasi ifodalaydigan davomli o'tgan zamon shakllari: **-r edi (-ar edi), -yotgan edi (-ayotgan edi), -yotib edi (-ayotib edi), -yotir edi (-ayotir edi), -moqda edi**.

Bu shakllar o'tgan zamonning bir davrida davom etib turgan harakat-holatlarni ifodalaydi. Nazarda tutilgan ishora vaqt davom etib turgan harakat-holat vaqtiga tegishli bo'ladi, ya'ni ishora vaqt harakat-holat vaqtining bir nuqtasini ko'rsatadi (4-chizma). M: *O'sha vaqtda ular ko'chada o'ynar edi. Kecha tungi soat ikkida sen uxlayotgan eding*.



4-chizma. Davomli o'tgan zamon shakllari

I.5. $N > I > H$ strukturasi ifodalovchi maqsadli o'tgan zamon shakllari: **-ydigan edi (-adigan edi), -guvchi edi, -moqchi edi, -moqchi bo'ldi, -moqchi bo'lgan**.

-ydigan edi (-adigan edi), -guvchi edi shakllari nisbatan nafaol bo'lib, o'tmishda subyekt uchun odat tusiga kirgan takroriy harakat-holatlarni ifoda etganda keyinchalik bu odatning saqlanmaganligi ma'nosi anglashiladi. -moqchi edi, -moqchi bo'ldi, -moqchi bo'lgan shakllari o'tmishning muayyan nuqtasida asosdagi harakat-holatni amalga oshirish uchun istak tug'ilganini, shu bilan birga, o'tgan zamonning undan keyingi davrida bu istakning amalga oshmaganligini aks ettiradi (5-chizma). Yana bir e'tiborli jihati -moqchi va undan hosil qilingan grammatik shakllar jonli subyektlarni talab qiladi. M: *U onasiga sovg'a bermoqchi edi*. Shuningdek, -moqchi edi shakli kontekstga aloqador holda kelasi zamon ma'nosini ham ifodalaydi.



5-chizma. Maqsadli o'tgan zamon

II. Hozirgi zamon shakllari:

Hozirgi zamonda nutq momenti va ishora vaqti har doim bir paytga to'g'ri keladi va ular "ayni vaqt", "hozir"ni anglatadi. Ushbu zamon shakllarini ikki guruhga ajratish mumkin:

II.1. $N = I = H$ strukturasi ifodalovchi umumiy hozirgi zamon shakli: **-a (-y)**.

Bu shakl asosdagi harakat-holatning nutq momentida ham umuman mavjudligi, amalga oshayotganligini ko'rsatadi (6-chizma). Bunda, ayniqsa, statik holatlar, odatiy takrorlanuvchi harakat-holatlar, doimiy haqiqatlar ko'proq ifodalanadi. M:


Men Toshkentda yashayman. Har kuni soat oltida uygʻonaman. Yer Quyosh atrofida aylanadi.



6-chizma. Umumiy hozirgi zamon

II.2. $N=I \subset H$ strukturasi ifodalovchi davomli hozirgi zamon shakllari: **-yap, -yotib (-ayotib), -yotir (-ayotir), -moqda, -yotgan**. Shuningdek, **yurmoq, turmoq, oʻtirmoq, yotmoq** feʼllarining koʻmakchi feʼl va holat feʼli sifatida hozirgi zamon maʼnosida qoʻllanilishi.

Bu zamon strukturasi uchun asosiy xususiyat feʼl asosidagi harakat-holatning nutq momentida davomiylikka ega boʻlishidir. Harakatning qachon boshlangani va qachon tugashiga emas, balki ayni vaqtda davom etib turganiga eʼtibor qaratiladi (7-chizma).




7-chizma. Davomli hozirgi zamon

III. Kelasi zamon shakllari:

Kelasi zamon shakllari asosdagi harakat yoki holatning nutq momentidan keyingi vaqtda yuz berishini anglatadi. Bu zamonda ham umumiy, natijali va davomli kelasi zamon maʼnosini farqlash mumkin:

III.1. $N < I = H$ strukturasi ifodalovchi umumiy kelasi zamon shakllari: **-a (-y), -r (-ar), -moqchi, -ydigan (-adigan), -ajak (-yajak), -gay (-kay, -qay), harakat nomi+shaxs-son+kerak/lozim/shart/darkor/mumkin** (masalan, oʻqishim kerak).

Umumiy kelasi zamonda harakat-holat vaqti va ishora vaqt bir paytga toʻgʻri keladi va ular doimo nutq momentidan keyin joylashadi (8-chizma). **-a (-y)** shakli kontekstdan, qolaversa, feʼlning lugʻaviy maʼnosidan kelib chiqib hozirgi yoki kelasi zamon maʼnosini ifodalaydi. Dinamik xususiyatga ega feʼllar koʻpincha bu shakl bilan kelasi zamon maʼnosini beradi. M: *boraman*. **-r (-ar)** shakli feʼl asosidagi harakat-holatni kelasi zamonda yuz berishini gumon bilan ifodalaydi. M: *Kutgan insoningiz kelib qolar*. **-moqchi** kelasi zamonda amalga oshishi rejalangan maqsadni ifodalaydi. **-ydigan (-adigan)** asosan kelasi zamon sifatdoshi vazifasini bajarib, kesim vazifasida nibatan nafaol. **-ajak (-yajak)** shakli qatʼiy kelasi zamoni anglatadi, biroq bu shakl ham **-gay (-kay, -qay)** kabi tarixiylik boʻyogʻiga ega boʻlib hozirgi oʻzbek adabiy tili zamon ifodasida faol emas. Harakat nomi+shaxs-son+kerak/lozim/shart/darkor/mumkin shaklining kelasi zamoni anglatishi tarkibidagi modal soʻzlarning mohiyatida majud ehtiyoj uchun kelgusida nimadir qilish, talab qilish maʼnolari bilan bogʻliq. M: *Ustozing bilan suhbatlashishing kerak*.



8-chizma. Umumiy kelasi zamon

III.2. $N < I > H$ strukturasi ifodalovchi natijali kelasi zamon: **-gan boʻl+a+shaxs-son (-kan boʻl+a+shaxs-son, -qan boʻl+a+shaxs-son)**.

Bu zamon strukturasi kelasi zamonda nazarda tutilgan muayyan vaqt (ishora vaqt)da **-gan boʻl+a+shaxs-son** shakli qoʻshilgan feʼl asosidagi harakat-holat amalga

oshib bo'lgan bo'ladi va uning natijasiga e'tibor qaratiladi (9-chizma). M: *Bir oydan so'ng bu yerda imorat qurilgan bo'ladi.*



9-chizma. Natijali kelasi zamon

III.3. $N < I < H$ strukturasi ifodalovchi davomli kelasi zamon: **-yotgan (-ayotgan)+bo'l+a+shaxs-son.**

-yotgan (-ayotgan)+bo'l+a+shaxs-son shakli fe'l asosidagi harakat-holatning nutq momentidan keyin boshlanib, nazarda tutilgan vaqtda davom etib turganligini anglatadi (10-chizma). M: *Sen buni bilganingda men yo'lda ketayotgan bo'laman.*



10-chizma. Davomli kelasi zamon

Umuman olganda, inson ongida ikki va undan ortiq harakat va holatlar o'zaro davriy munosabatlari asosida o'rinishadi. Bunday davriy munosabatlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: o'zaro ketma-ketlik, bir vaqtda sodir bo'lish, qisman kesishish, birining tarkibida boshqasining davom etishi. Bu munosabatlar asosan qo'shma gap tarkibida, shuningdek, tarkibida ikki va undan ortiq harakat va holatlarni qamrab olgan sodda gaplar tarkibida yuzaga chiqishi mumkin. Qolaversa, har qanday harakat va holatlar obyektiv zamonning muayyan momentiga nisbatan yo tugallangan, yo davom etayotgan, yo boshlanmagan holatlardan biriga mansub bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Comrie, B. Tense. – Cambridge: Cambridge University Press, 1985.
2. Ҳожи́ев, А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973.
3. Жўраева, Ж.. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида келаси замон феъли: Фил. фан. номз...дисс. – Тошкент, 1961.
4. Reichenbach, H. Elements of Symbolic Logic. – New York: Macmillan & Co, 1947.
5. Сулаймонов, А., А. Ҳожи́ев, Ж. Жўраева. Феъл замонлари. – Тошкент: Фан, 1962.
6. Турсунов, У., Ж.Мухторов, Ш.Рахматуллаев. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975.
7. Фуломов, А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1954.

O'ZBEK TILIDA GUL KOMPONENTLI O'XSHATISHLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xudayarova S.,
ToshDO'TAU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi gul komponentli o'xshatishlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Insonning tashqi ko'rinishi, holatini ifodalashda gul komponentli o'xshatishlarning ahamiyati ochib beriladi.

MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Sh.</i> Milliy til – muvaffaqiyatlarimiz asosi	5
TIL NAZARIYASI VA ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK MASALALARI	
<i>Dadaboyev H.</i> Janos Ekmann – eski o‘zbek (chig‘atoy) adabiy tilining atoqli tadqiqotchisi	7
<i>Gülensoy T.</i> Köktürkler’in Büyük Veziri “Tonyukuk Boyla Baga Tarkan”in Adı Üzerine Yazılanlar ve Yeni Bir Görüş	9
<i>Абдушукуров Б.</i> «Қисаси Рабғузий» асарида қўлланган ўзлашмаларнинг полисемантик хусусиятлари	15
<i>Gümüş M.</i> Türk Kültüründe Erdem Kavramı	22
<i>Xolmanova Z.</i> Modellashtirish – grammatikani o‘zlashtirish metodi sifatida	29
<i>Жўрабоева М.</i> Тилшуносликка доир тадқиқотлар мазмунини янгилаш	32
<i>Наралиева Ш.</i> Қозоғистондаги таълим ўзбек тилида олиб бориладиган умумтаълим мактабларида она тили машғулотларини самарали ташкил этиш	34
<i>Jumashov D.</i> O‘zbek tilida ko‘makchilar semantikasi	40
<i>Qurbonova M.</i> O‘zbek bolalar nutqida leksik presuppozitsiyaning voqelanishi	45
<i>Abduraxmonova M.</i> Turkiy tillarda semantik derivatsiya asosidagi omonimlar	50
<i>Egamova Sh.</i> Farida Afro‘z she‘riyatining til xususiyatlari	53
<i>Abdujabbarova F.</i> Tog‘ay Murod asarlari tilida qo‘llanilgan metaforalar semantikasi	57
<i>Bozorova S., Bozorova I.</i> Ba‘zi terminlarning gazeta tilidagi o‘rni	60
<i>Дустмаматова Н.</i> Градуонимия в исследованиях узбекских лингвистов	64
<i>Komilova G.</i> Aksiolingvistik tadqiqotlarda shkalalardan foydalanish	69
<i>Baxodirova Sh.</i> Abdulla Qodiriy asarlarining lingvistik aspektidagi tadqiqi	72
<i>Ziyotova S.</i> “Mehrobdan chayon” asarida qo‘llanilgan umumturkiy zoonimlar xususida	78
<i>Tashmatova N.</i> Haydar Xorazmiyning “Gulshan ul-asror” masnaviysida maqollardan foydalanish mahorati	82
<i>Norova Sh.</i> Asqad Muxtorning “Chinor” romanida makon va zamon birligi tamoyili	85
<i>Qahharova S.</i> “Yurmoq” semali fe’llar tadqiqi	88
<i>Djumashev A.</i> Yangicha qurilish terminlari va ular muqobillarini qo‘llashning dolzarb muammolari	91
<i>Jumaniyozova N.</i> O‘zbek yuridik diskursida presuppozitsiyaga ishora qiluvchi morfologik vositalar	94
<i>Худайкулова Ш.</i> Аксиология ва ҳозирги лингвистик тадқиқотларнинг ўзаро боғлиқ жиҳатлари	100
<i>Xudayberdiyeva O.</i> O‘zbek tilshunosligida gender tadqiqotlar mazmuni	103
<i>Мардонова Р.</i> Тилда эпитет ва сифатлаш	108

<i>Yuldosheva M.</i> Bolalar nutqiga xos deytik birliklarning yuzaga kelish omillari	110
<i>Xonnazarov E.</i> O‘zbek tilidagi zamon grammatik shakllarining formal tasnifi	113
<i>Xudayarova S.</i> O‘zbek tilida gul komponentli o‘xshatishlarning o‘ziga xos xususiyatlari	117
<i>Ma‘mirova X.</i> So‘z ma‘nosini o‘zlashtirishda shaxsiy ongdagi “qarz” masalasi	120
<i>Abdullayeva M., Ahmedova A.</i> Qoraqalpoq tilidagi ayrim iboralarning lingvokulturologik xususiyatlari	123
<i>Mo‘minova M.</i> O‘zbek tilidagi “suv” leksemasining leksik-semantik xususiyatlari	127
<i>Uzakova X.</i> “Sadoqat” tuyg‘usini shakllantirishda tilning o‘rni	130
<i>Yodgorov J.</i> Dialogda urf-odat undovlari	133
<i>Зайниева М.</i> Глобал синтактик структура ва матн тушунчаси хусусида	137
<i>Allamberganova N.</i> Qoraqalpoq adiblarining “nutq” ma’noli frazemalardan foydalanish mahorati	140
<i>Murotov H.</i> Radio tilida bilvosita nutqiy aktning ifodalanishi	143
<i>Oripova Z.</i> “Ona” murojaat birligining kognitiv-konseptologik tahlili	146
<i>Rajabov H.</i> “Бир” ва “ярим” сўзларининг семантик хусусиятлари	148
<i>Abduraxmonova G.</i> “Qora” leksemasining madaniy semalari	153
<i>Abduvaliyeva K.</i> Etonimlar tadqiqiga oid ba’zi adabiyotlar tahlili	155
<i>Abdullajonova M.</i> Disgrafiya va dispraksiya: o‘xshash va farqli jihatlar xususida ayrim mulohazalar	159
<i>Raximov X.</i> O‘zbek tili uchun Wordnet tipidagi tezaurusni shakllantirish	162
TIL TARIXI	
<i>Kilichov N.</i> Qadimgi turkiy tildagi juft so‘zlarning ba’zi xususiyatlari (“Oltun yorug‘” asari misolida)	169
<i>Ubaydullayev A.</i> Atoyi g‘azallarining leksik-grammatik xususiyatlari	171
<i>Baxronova D.</i> “Shampun” va “kolgotki” leksemalarining etimologiyasiga doir	175
<i>Muhammadiyeva D.</i> “Aruz” asarining o‘rganilish tarixi	177
<i>Холмурадова М.</i> “Қутадғу билиг” мазмунини ўзлаштиришда ўхшатишларнинг ўрнини ёритиш	181
<i>Rixsiyeva K.</i> Rus tiliga o‘zlashgan “qop” asosli so‘zlar etimologiyasi	184
<i>Muhammadiyeva D., Abduraxmonova S.</i> “Devoni lug‘atit turk”dagi oziq-ovqat nomlari tahlili	187
<i>Xo‘janiyazova Sh.</i> Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasining hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabati	189
<i>O‘razova I.</i> XIV asrning II yarmi manbalarida qo‘llangan “ko‘z” yadroli frazemalar tahlili	193
<i>Tuxtasinova M.</i> Qarindoshlik terminlarining L.Budagov lug‘atida izohlanishi	197

<i>Mamarajabova I.</i> “Muhokamat ul-lug‘atayn” – chog‘ishtirma tilshunoslik asosi sifatida	202
<i>Quraqova Sh.</i> Piktografik yozuv tarixi va zamonaviy dunyoda piktogrammalar	205
<i>Odilova D.</i> “Qutadg‘u bilig” asaridagi zoonimlar tasnifi va ularning semantik-funksional xususiyatlari	209
<i>Nuriddinova V.</i> “Majolis un-nafois” asaridagi diniy antroponimlarning tematik-semantik tavsifi	212
<i>Ibodullayeva S.</i> “Kecha va kunduz” romanining badiiy xususiyatlari	217
<i>Rasulova G.</i> “Boburnoma”da berilgan fitonimlar tahlili	221
<i>Kozimjonova G.</i> “Devonu lug‘otit-turk” asarida shaxs xarakteristikasiga oid sifatning ifodalanishi	223
<i>Ismatova V.</i> “Devoni lug‘otit-turk” dagi ayrim ko‘p ma‘noli otlar haqida	226
<i>Lafasova M.</i> Omonimiyaga doir tadqiqotlar	228
<i>Rajabova M.</i> “Qisasi Rabg‘uziy” va “Boburnoma”dagi diniy terminlar	230
<i>Bakirov Q., Abdullayeva M.</i> Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida graduonimiya va uning bugungi kun nuqtayi nazaridan tilimizda ifoda etilishi	232
<i>Mohammad Yasin Yoldash.</i> “Kecha va kunduz” romanidagi chorvachilik va ekinchlikka tegishli so‘zlarning izohi va tahlili	235
O‘ZBEK LUG‘ATCHILIGINING NAZARIY ASOSLARI	
<i>Эназаров Т., Эсману Н.</i> Электрон луғатда диалектал сўзларнинг берилиши	241
<i>Ибрагимов Ю.</i> Ўзбек халқ шевалари лексикасининг тадрижий тараққиёти асослари	244
<i>Xudoyberdiyev J.</i> Xaritonov alifbosi haqida	248
<i>Norova G.</i> O‘zbek lug‘atchiligining nazariy asoslari	253
<i>Bozorova S., Axmadaliyeva G.</i> “Ot” komponentli o‘zbek va turk maqollarining qiyosiy tahlili	256
<i>Назаров Б.</i> Биология терминлари тараққиёти. Айрим терминларнинг лингвистик таҳлили	259
<i>Mingboyev V.</i> Said Ahmad asarlarida fonetik vositalarning qo‘llanilishi	266
<i>Tolipova D.</i> Термин “лакуна” в работах современных лингвистов	269
<i>Kasimova Z.</i> Бадий матн таржимасида реалияларнинг ифодаланиши	274
<i>Latipova G.</i> O‘zbek lug‘atshunosligining xronologiyasi va toksonomiyasi	277
<i>Israilova S.</i> “Ko‘k” komponentli frazemalar semantikasi	281
<i>Abdurahmanova S.</i> O‘zbek shevalarining elektron platformasini yaratish	284
<i>Raximova K.</i> Noverbal vositalarning etnik xususiyatlari	287
<i>Xo‘jamova M.</i> “Alpomish” dostonida lakunar birliklar tahlili	290
<i>Alimova Sh.</i> Xorazm qipchoq shevalarida maishiy leksik birliklar	295
<i>Ibrohimova D.</i> Ibn Sino asarlaridagi ba’zi tibbiy terminlar izohi	297
<i>Hasanov M.</i> Hozirgi kunda ommalashayotgan sport terminlari	299
<i>Hayitboyeva D.</i> Gurlan tumani Do‘sinbiy qishlog‘i shevasi leksikasidan materiallar	302

<i>Rahimova D.</i> Marhamat shevasi soʻzlari haqida mulohazalar	306
<i>Qoʻziboyeva G.</i> Adabiyotshunoslik terminlarini oʻzlashtirishda tezaurus modellaridan foydalanish	312

QIYOSIY VA CHOGʻISHTIRMA TILSHUNOSLIK HAMDA TARJIMA MASALALARI

<i>Imamova X.</i> Turk va oʻzbek tillaridagi maqollarning qiyosiy oʻrganilishi xususida	315
<i>Niyazova G.</i> Детектив асарларнинг прагматик тамойиллари	319
<i>Orazbayev E.</i> Turkiy tillardagi arabcha oʻzlashmalarning imlosi	322
<i>Xidirov R.</i> Ўзбек ва тожик тилларида парема ва фраземаларнинг лексик-семантик хусусиятлари	324
<i>Жаңабаев А.</i> Түркий тиллериндеги жылқы сөзиниң салыстырмалы анализи	328
<i>Akromov U.</i> Badiiy tarjimada davr ruhi va milliy ruhni saqlash	331
<i>Mirzayeva G.</i> Turk tilidagi tovush oʻzgarishlarining neyrolingvistik tahlili	337
<i>Mavlyanov S.</i> Oʻzbek tili diplomatiya termino sistemasida giponimiya	341
<i>Atamuradov Sh.</i> Oʻzbek-turk muloqot madaniyatida pragmatik toʻsiq sifatida argolar	344
<i>Xudoyberdiyeva D.</i> Адабий алоқаларда туйғулар тасвири	347
<i>Kaharova I.</i> Oʻzbek va ingliz tillarida taqlid soʻzlar xususiyatlari	349
<i>Raximova U.</i> Sheʼriyatda ruhiy portret va soʻz	352
<i>Abdullayev A.</i> Oʻzbek tilida ifodalangan “harakat tarzi” maʼnosining ingliz tilida berilishi	355
<i>Musurmankulova Sh.</i> Oʻzbekcha va turkcha frazemalar korpusining nazariy asoslari	359
<i>Abduazizova M.</i> Oʻzbek va ingliz tillaridagi somatik frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlari	362
<i>Hosiljonova E.</i> Oʻzbek va ingliz tillarida sinonim soʻzlarning tutgan oʻrni	366
<i>Madrimov Gʻ.</i> Oʻzbek va qoraqalpoq tillarida affiksatsiya usulida yasalgan mustaqil soʻz turkumlarining lingvomadaniy tadqiqi	368

TIL TAʼLIMI

<i>Jumashov D., Dosanov D.</i> Ona tili darslarida matn ustida ishlash	371
<i>Bozorova I., Shodiyeva I.</i> Til taʼlimida maqol va iboralardan foydalanish	377
<i>Zarmasov Sh.</i> Kompozitsiya usulida modellashtirish metodining samarasi	379
<i>Azizov S.</i> Chet tillarini oʻrgatish muhitining blended taʼlim shakli va texnologiyalari yordamida modernizatsiyalashuvi	383
<i>Abdullayeva G.</i> Ona tili taʼlimida mustaqil ishlar	387
<i>Buronova N.</i> Uzbekistan English language teacher competences	392
<i>Yoqubova S.</i> Shaxsiy yozishmalarda noadabiy fonetik hodisalarning shaxs yoshiga muvofiq hosil boʻlish omillari	394
<i>Oʻrinova Z.</i> Pretsedent nomlarning allyuziv nom sifatidagi vazifasi	396
<i>Mirnosirova D.</i> Bolalar nutqi tadqiqiga assotsiativ yondashuv	400
<i>Xudoyberdiyeva N.</i> Lingvistik ekspertizaning asosiy tamoyillari	404

TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI

Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga
mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Adadi 150 nusxa. Hajmi 24,7 b/t. Bichimi 60x84 ¹/₁₆
«Times New Roman» garniturasida. ofset usulida bosildi.
OOO «BOOKMANY PRINT» bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22 mavze, 17-b.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

 t.me/ Bookmanyprint  +998 99 180 97 10